



## J.K. ROWLING ASARLARIDA MIFOLOGIK ARXETIPLAR VA AFSONAVIY MAVJUDOTLAR

Nurmatova Madina Toxir qizi

Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti 3-kurs talabasi

Email: nurmatovamadina69@gamil.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18766476>

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqotning maqsadi Garri Poter (Harry Potter) seriyasida mifologik arxetiplar va afsonaviy mavjudotlarning syujet va obrazlar tizimidagi funksional rolini aniqlashdan iborat. Tadqiqot zamonaviy fantastik adabiyotda mifologik strukturalarning narrativ qurilishdagi o'rnini ilmiy asosda tahlil qilishga qaratilgan. Metodologiya sifat va miqdoriy tahlil uyg'unligiga asoslandi: asar matnlari kontent-tahlil usuli orqali o'rganilib, mifologik elementlar tasniflandi va statistik jihatdan umumlashtirildi. Qahramon obrazining rivojlanishi arxetip nazariyasi doirasida tahlil qilindi, intertekstual yondashuv yordamida esa afsonaviy mavjudotlar va ramziy motivlarning madaniy-manba asoslari aniqlashtirildi. Natijalar seriyada aniqlangan 27 ta asosiy afsonaviy mavjudot va bosh qahramonning rivojlanish modeli mifologik strukturalar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Tadqiqot fantastik matnlarda mifologik elementlarni tizimli tahlil qilish orqali arxetip nazariyasini empirik material asosida mustahkamlaydi hamda adabiy tahlil metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Harry Potter ; mifologik arxetip; qahramonlik modeli; intertekstual tahlil; afsonaviy mavjudotlar; fantastik adabiyot; narrativ struktura; yunon mifologiyasi

**Аннотация:** Цель данного исследования заключается в выявлении функциональной роли мифологических архетипов и мифических существ в структуре сюжета и системе образов серии Harry Potter . Работа направлена на научный анализ значения мифологических структур в построении нарратива современной фантастической литературы. Методология основана на сочетании качественного и количественного анализа: тексты произведений исследованы методом контент-анализа, мифологические элементы классифицированы и статистически обобщены. Развитие образа главного героя рассмотрено в рамках теории архетипов, а интертекстуальный подход позволил определить культурно-исторические источники мифических существ и символических мотивов. Результаты показали, что выявленные 27 ключевых мифических существ и модель развития героя тесно связаны с мифологическими структурами повествования. Исследование способствует систематизации мифологических элементов в фантастической литературе и расширяет методологические возможности архетипического анализа.

**Ключевые слова:** Harry Potter ; мифологический архетип; модель героя; интертекстуальный анализ; мифические существа; фантастическая литература; структура нарратива; греческая мифология

**Abstract:** The purpose of this study is to determine the functional role of mythological archetypes and mythical creatures in the plot structure and character system of the Harry Potter series. The research provides a scholarly analysis of mythological structures in contemporary fantasy narrative construction. The methodology integrates qualitative and

quantitative approaches: the texts were examined through content analysis, mythological elements were classified, and statistical data were systematized. The protagonist's development was analyzed within the framework of archetype theory, while the intertextual approach was employed to identify the cultural and historical sources of mythical creatures and symbolic motifs. The findings indicate that the identified 27 key mythical creatures and the hero's developmental model are structurally connected to mythological narrative patterns. The study contributes to the systematic classification of mythological elements in fantasy literature and strengthens the empirical application of archetypal theory in literary analysis.

**Key words:** Harry Potter ; mythological archetype; hero's journey model; intertextual analysis; mythical creatures; fantasy literature; narrative structure; Greek mythology

J.K. Rowling ( J.K. Rouling)ning Harry Potter ( Garri Poter) seriyasi zamonaviy fantastika adabiyotida mifologik va afsonaviy elementlarni uyg'unlashtirgan eng mashhur asarlardan biridir. Seriyada qahramonlar va voqealar ko'plab yunon mifologiyasi, ertaklar va folklor elementlariga asoslanadi [6;7]. Garri Poterning bosh qahramon sifatidagi arxetipi Jozef Kampbellning mifologik qahramon nazariyasi bilan bog'lanadi. Shu kontekstda, tadqiqotning maqsadi – J.K. Rowling asarlarida afsonaviy mavjudotlar va mifologik arxetiplarning qanday ishlatilganini aniqlash va ularning fantastik janrdagi o'rnini tahlil qilishdir.

Tadqiqot materiali sifatida tanlangan 10 ta manba ishlatiladi: (Mamadaliyeva, 2024; Dizayi & Bagirlar, 2022; Klimešová, 2014; Baker, 2011; Laouar, 2017; Jayatissa, 2023; Vijayan & Haider, 2016).

Tadqiqot usullari:

Matn tahlili: romandagi afsonaviy mavjudotlar va qahramonlar tasvirini o'rganish.

Intertekstual tahlil: yunon mifologiyasi, ertaklar va folklor elementlarini Rowlingning asarlari bilan solishtirish.

Arxetiplarni tasniflash: Garri Poterning bosh qahramon sifatidagi rolini mifologik qahramon arxetipi orqali baholash.

Tadqiqot davomida Garri Poter seriyasidagi afsonaviy mavjudotlar va mifologik arxetiplar 7 ta manba asosida tahlil qilindi. Quyidagi natijalar olindi:

Qahramonlik arxetiplari:

Garri Poterning bosh qahramon sifatidagi xatti-harakatlari ko'p hollarda Josef Kampbellning "Hero's Journey" modeliga mos keladi.

Seriyadagi qahramonlarning tahminiy foizlarda 65% sinov va qiyinchiliklardan o'tishi orqali o'sish jarayonini aks ettiradi.

Afsonaviy mavjudotlar:

Ilmiy tadqiqotlarda o'rganilgan Seriyada jami 27 ta asosiy afsonaviy mavjudot aniqlangan: Basilisk, Hippogriff, Nymph, Dragon, Kntaur (Centaur), Feniks ( Phoenix), Troll, Mermaid [7;4]. Buni foiz korsatkichlarida ifodalasak, ularning 59% yunon mifologiyasi elementlariga, 41% esa xalq ertaklari va folkloriga asoslangan.

Mifologik alluziyalar va ramziy elementlar:

Ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish orqali Hikmatlar toshi va Alanga kubogi (Philosopher's Stone va Goblet of Fire) romanlarida 22 ta aniq mifologik alluziya mavjudligi aniqlandi.

Alluziyalar tarkibida: foiz ko'rsatkichlarida 41% yunon mifologiyasi, 31% xalq ertaklari, 28% folklor elementlari.

Olingan natijalar ko'rsatdiki, Garri Poterning bosh qahramonlik xatti-harakatlari ko'p hollarda Kampbell(Cambell)ning "Hero's Journey" modeli bilan mos keladi va bu oldingi tadqiqotlar bilan uyg'unlikda bo'lib, Baker (2011) va Dizayi (2022) Garri Poterni mifologik qahramon sifatida tahlil qilgan. Umuman olganda, ko'plab mifologik syujetlarning asosini qahramon sayohati modeli tashkil etadi. Ushbu model bosh qahramonning sarguzashtlari, murakkab sinovlari va ruhiy-axloqiy yetilish jarayonini ifodalaydi. Garri Poter obrazi ham ana shu arxetipik tuzilishga mos keladi hamda yunon mifologiyasidagi Gerakl va Perseey singari qahramonlar bilan qiyoslanadi. U ham yetimlik va e'tiborsizlik sharoitidan boshlanib, asta-sekin yovuz kuchlarga qarshi kurashuvchi qahramonga aylanadi [6]. Misol uchun, Garri Poter va Hikmatlar toshi (Harry Potter and the Sorcerer's Stone) romanida Garri Voldemortga qarshi kurashadi va hikmatlar toshi (Philosopher's Stone) ni himoya qiladi, bu sinov bosqichiga to'g'ri keladi [1], shuningdek, Garri Poter va Maxfiy xujra (Harry Potter and the Chamber of Secrets) da Garri Tom Riddlning sirli xonasiga kiradi va Basiliskni yengadi, bu esa qahramonning o'sishi va qiyinchilikdan chiqishini ko'rsatadi [6].

Seriyada jami 27 ta asosiy afsonaviy mavjudot aniqlangan, jumladan Basilisk, Hippogriff, Nymfs (Nymph), Dragon, Kentavr (Centaur), Feniks (Phoenix), Troll va Mermaid (Vijayan & Haider, 2016; Klimešová, 2014). Shuningdek, J.K. Rowling asarlarida yunon mifologiyasidan olingan afsonaviy mavjudotlar syujetning semantik qatlamini boyituvchi vosita sifatida qo'llanadi. Xususan, kentavr obrazi ikki an'anada ham murakkab ramziy mazmunga ega. Antik mifologiyada kentavrlar insoniylik va yovvoyilik o'rtasidagi ichki ziddiyatni ifodalasa, "Harry Potter" seriyasida Firenze kabi qahramonlar donolik va ma'rifat timsoli sifatida talqin etiladi. Ularning tabiiy instinkt va intellektual ong o'rtasidagi ichki muvozanati inson tabiatidagi dualizmni aks ettiradi. Mazkur ramziy talqin mifologik an'ana bilan zamonaviy badiiy tafakkur o'rtasidagi uzviylikni ko'rsatadi. Hippogriff (Prisoner of Azkaban) yunon mifologiyasidagi Griffin bilan bog'liq bo'lib, yunon mifologiyasi va fantastika integratsiyasini ko'rsatadi [7]. Basilisk (Chamber of Secrets) qadimgi yunon ilonlar va ajdarholarga ishora qiladi [3], shuningdek, Nymphs (Nymfs) va Mermaids (Goblet of Fire) xalq ertaklari va folklor elementlariga asoslangan [4]. Natijalar Vijayan va Hayder (2016) va Jayatissa (2023) tadqiqotlari bilan uyg'un bo'lib, Rowlingning afsonaviy mavjudotlarni yunon mifologiyasi bilan uyg'unlashtirganini tasdiqlaydi.

Mifologik alluziyalar bo'yicha ham natijalar bir xildir. Hikmatlar toshi (Philosopher's Stone) qadimgi alkimik ramzlar va yunon mifologiyasidagi hayotiy kuchni ifodalaydi [5], Goblet of Fire (Alanga kuboki) romani esa uchta sehrGAR musobaqasidagi mavjudotlar va sinovlar orqali yunon mifologiyasi arxetiplari bilan bog'lanadi [3], shuningdek Feniks (Phoenix) ramzi qayta tug'ilish va fidoyilikni bildiradi va qadimgi mif hamda afsonalarda uchraydi [7]. Laouar (2017) tadqiqotida ham mifologik alluziyalar seriya voqealarining dramatik tuzilishini kuchaytiradi, bu natijalar bilan to'liq uyg'un.

Nazariy jihatdan tadqiqot fantastik adabiyotda mifologik va afsonaviy elementlarni tizimli tahlil qilish imkonini beradi va Garri Poterning qahramonlik arxetipi hamda mavjudotlarning taqsimoti mifologik arxetip nazariyasi va intertekstual tahlil metodologiyasini rivojlantiradi. Amaliy ahamiyati shundaki, natijalar o'quvchilar va o'qituvchilar uchun adabiy tahlil materiallari sifatida foydalanilishi mumkin va fantastik janrni o'qitishda mifologik va afsonaviy

elementlarni identifikatsiya qilish, kreativ yozuv mashg'ulotlarida metodik vosita sifatida qo'llanilishi mumkin. Shu bilan birga, intertekstual tahlil va ilmiy tadqiqot metodlarini o'rgatishda asosiy manba sifatida xizmat qiladi.

Kelajak tadqiqotlari uchun tavsiyalar shuki, Rowling asarlaridagi yunon mifologiyasi va xalq ertaklari integratsiyasini chuqurroq tahlil qilish zarur, boshqa fantastik seriyalar bilan solishtirish orqali mifologik elementlarning umumiy tendensiyalarini aniqlash mumkin va afsonaviy mavjudotlar hamda qahramon arxetiplari o'quvchi psixologiyasi va pedagogik qo'llanilishi bo'yicha eksperimental tadqiqotlar olib borilishi mumkin.

Mazkur tadqiqot Harry Potter seriyasida mifologik arxetiplar va afsonaviy mavjudotlar tasodifiy yoki dekorativ unsur emas, balki syujetni tashkil etuvchi va qahramon obrazini shakllantiruvchi strukturaviy mexanizm ekanini aniq ko'rsatdi. Matn tahlili natijasida bosh qahramon harakatlarining asosiy qismi Kampbellning qahramonlik modeli bosqichlariga mos kelishi aniqlanib, asarda arxetipik narrativ konstruktsiya ongli ravishda qo'llangani dalillandi. Shuningdek, aniqlangan 27 ta afsonaviy mavjudotning kelib chiqishi yunon mifologiyasi va folklor manbalari bilan bevosita bog'liqligi intertekstual qatlamning tizimli xarakterga ega ekanini tasdiqladi.

Tadqiqotning ilmiy hissasi shundaki, u fantastik adabiyotdagi mifologik elementlarni umumiy tavsiflash bilan cheklanmay, ularni tasniflash, funksional jihatdan ajratish va syujet strukturasiidagi rolini aniqlash orqali metodologik jihatdan asoslangan modelni taklif qildi. Natijalar mifologik arxetip nazariyasini zamonaviy fantastika materialida empirik dalillar bilan mustahkamladi hamda intertekstual tahlilni qo'llashning amaliy mexanizmini ko'rsatdi.

Amaliy jihatdan esa tadqiqot natijalari fantastik asarlarni o'qitish, adabiy tahlil metodikasini ishlab chiqish va talabalarda arxetipik tafakkurni shakllantirish jarayonida qo'llanilishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot doirasi bitta adabiy seriya bilan cheklanganligi va empirik o'quvchi qabul qilish tadqiqotlari bilan boyitilmaganligi ma'lum chegaralarni yuzaga keltiradi. Kelgusida qiyosiy va eksperimental tadqiqotlar olib borish mazkur natijalarni yanada mustahkamlashi mumkin.

Yakuniy ilmiy xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, mazkur tadqiqot zamonaviy fantastik adabiyotda mifologik strukturalar syujet qurilishining ichki mexanizmi sifatida faol ishlashini ilmiy asosda isbotlaydi va bu yo'nalishda keyingi tadqiqotlar uchun nazariy va metodologik poydevor yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baker, K. L. (2011). Harry Potter : A Hero of Mythic Proportions (Master's thesis, State University of New York College at Buffalo). Buffalo State College Digital Commons.
2. Dizayi, S., Bagirlar, B. (2022). Mythmaking in Modern Literature: Harry Potter by J.K. Rowling. Journal of Advanced Research in Social Sciences, 5(3), 26–31.
3. Jayatissa, P. G. R. M. (2023). Recreation of Mythology in J.K. Rowling's Harry Potter and the Goblet of Fire. North American Academic Research, 6(10), 28–34.
4. Klimešová, P. (2014). From Jonah to Harry Potter : Harry Potter and the Chamber of Secrets as a Mythological Story (Bachelor's thesis). Masaryk University.
5. Laouar, M. (2017). The Use of Mythological Allusions in J.K. Rowling's Harry Potter and the Philosopher's Stone (Master's thesis, Kasdi Merbah University – Ouargla).

6. Mamadaliyeva, D. K. (2024). Influence of Greek Mythology in J.K. Rowling's "Harry Potter." Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences, 3(10), 117–123.
7. Murzageldina, N. B., Nesterik, E. V. (2016). Mythological Heroic Structures in J.K. Rowling's "Harry Potter" series. Molodoy Ucheniy (Young Scientist), 3(107), 1090–1098.
8. Schott, D. "Mythic Structure in J.K. Rowling's Harry Potter." Journal of Contemporary Mythology, vol. 3, no. 1, 2011, pp. 18-30.
9. Suresh, D. M. (2021). Probe on Myth and Hero: A Case Study of Harry Potter - Asserting Harry Potter as a Modern Mythical Hero. Smart moves journal ijellh, 9(2), 145–H157.
10. Vijayan, A. V., Haider, K. M. (2016). The existence of fairytale, folklore, and myths in fantasy: A study based on J.K. Rowling's Harry Potter series. International Journal of English Language, Literature and Humanities, 4(2), 420–428.

